

**TALABALRDA EGOSENTRIZIM RIVOJLANISHINI
ORGANISHDA TURLI XIL YONDASHUVLAR****Nishanboeva Mahbuba Asaqarovna ¹**

¹ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Psixologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

ARTICLE INFO**ABSTRACT:****ARTICLE HISTORY:**

Received: 27.11.2025

Revised: 28.12.2025

Accepted: 29.03.2025

*Maqola talabalarning psixologik o'sishini
tushunish va ularning ijtimoiy moslashuviga
ko'maklashish uchun muhim nazariy va amaliy
tavsiyalarni taqdim etadi.*

KEYWORDS:

*emotsional
egosentrizm, ijtimoiy
egosentrizm, intellektual
egosentrizm, kognitiv
rivojlanish nazariyasi,
siasal-madaniy
nazariya, Maslo va
Rojers nazariyasi,*

KIRISH. Talabalarda egosentrizm dolzarbligi ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Talabalik davri o'spirinlik ikkinchi bosqichidan iborat bo'lib 17-22 (25) yoshni o'z ichiga oladi va o'zining qator betakror va qarama qarshiliklari bilan xarakterlanadi. Shu boisdan o'spirinlik davri shaxsning ijtimoiy hamda kasbiy mavqeini anglashdan boshlanadi. Talabalarda mustaqil bilim olish, o'z faoliyatini o'zi tashkil qilish, o'zini o'zi boshqarish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish orqali, egosentrizmni kamaytirish talabalarda ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishi, bilim olish jarayonida muvaffaqiyatga erishishi va shaxsiy rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin. Ta'lim muassasalari va o'qituvchilar talabalarni tanqidiy fikrlashga, boshqalarni tinglashga va ochiq fikr almashishga o'rgatish orqali egosentrizmni kamaytirishga yordam berishi zarur. «Men» obrazining shakllanishi, shuningdek, axloqning yangi bosqichiga olishi bilan xarakterlanadi. Bu anglash oddiygina o'sishdan iborat bolib qolmasdan, u sifat jihatdan o'ziga xos xarakterga ega boladi, bu hoi

o'z shaxsining ma'naviy-psixologik xususiyatlarini konkret hayotiy maqsadlar va intilishlar nuqtayi nazaridan anglash va ularga baho berish ehtiyoji bilan boglangandir. [6]. 389 bet.

Egosentrizm – bu shaxsning dunyoni asosan o'z nuqtayi nazaridan baholashga moyilligi bo'lib, insonning fikrlashi, qarorlari va xatti-harakatlarida o'zini markazga qo'yishi bilan tavsiflanadi. Piagetning rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bolalikdagi egosentrizm asta-sekin kamayadi, lekin talabalik davrida u o'ziga xos shaklda namoyon bo'lishi mumkin. Ushbu bosqichda yoshlar mustaqil fikrlash va dunyoqarashlarini shakllantirishga intiladilar, ammo baribir o'zlarining subyektiv qarashlarini ob'ektiv haqiqat deb qabul qilishga moyil bo'ladilar. Psixologlardan B.G.Ananayev, N.V.Kuzmina, N.F.Talizina, V.Ya.Lyudis, I.S.Kon, V.T.Lisovskiy, A. A.Bodalev, A.V.Petrovskiy, M.G.Davletshin, I.I.Ilyasov, A. V.Dmitrieva, 3.F.Esareva, A.A.Verbitskiy, V.A.Tokareva, E.G'.G'oziev va boshqalarning tadqiqotlariga ko'ra, oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish talabalar uchun juda og'ir kechadi, chunki bu davrda shaxsning murakkab fazilatlarini, xislatlarini, sifatlarini takomillashish bosqichida bo'ladi. Mazkur yosh davridagi ijtimoiy-psixologik o'sishning xususiyatlaridan biri o'qish faoliyatining

ongli motivlari kuchayishidir. Ongli motivatsiya orqali Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo'lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk namoyondalari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilish mazmuni, nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. [3] Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo'lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk namoyondalari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilish mazmuni, nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Shuningdek, u odamlarning amal qilib kelayotgan tajribalari, yutuqlari, Talabalarda axloqiy jarayonlarning o'sishi sust amalga oshsa-da, lekin xulqning eng muhim sifatleri - mustaqillik, tashabbuskorlik, topqirlik, farosatlilik va takomillashib boradi. Shuningdek, ularda ijtimoiy holatlarga, voqelikka, axloqiy qoidalarga qiziqish, ulami anglashga intilish tobora kuchayadi. [4] Talabalarda egosentrizm – bu yoshga xos bo'lgan psixologik hodisa bo'lib, unda shaxs dunyoni o'z nuqtayi nazardan baholaydi va boshqalarning fikrini yetarlicha inobatga olmaydi. Ushbu jarayonning rivojlanishiga turli xil yondashuvlar orqali baho berish mumkin.

Talabalik davrida egosentrizm namoyon bo'lishi turlari.

1.Imtellektual egosentrizm

2.Ijtimoiy egosentrizm

3.Emosional egosentrizm

1.Intellektual egosentrizm. Talabalar o'z fikrlarini eng to'g'ri deb hisoblab ,bahs-munozaralarda o'z fikrlarini o'zgartishni hohlamasliklari yoki boshqalar fikrini tinglamaslik qabul qilmaslik

2.Ijtimoiy egosentrizm – bu insonning o'zining yoki o'z guruhining fikrlarini, qadriyatlarini va qarashlarini eng to'g'ri deb hisoblashga moyilligi.O'spirinlik davrida muloqotga ehtiyoj kuchayadi, muloqot vaqti ortadi, muloqot doirasi kengayadi. Muloqot doirasining kengayishi bilan muloqot chuqurlashadi va individuallashadi.

Axloqiy va ijtimoiy, siyosiy hislarning rivojlanishi ayniqsa xarakterlidir. Ular odatda muayyan axloqiy talablar bilan o'zaro

to'g'ri munosabatda boladilar. Boshdan kechirgan his-tuyg'ularni anglab yetish mahorati ham rivojlanadi.[6] 404 Egosentrizm insonning axloqiy rivojlanishiga ta'sir qiladi, chunki axloqiy taraqqiyot boshqalar nuqtai nazarini tushunish, empatiya va jamiyat qoidalarini qabul qilish qobiliyati bilan bog'liq jarayon. Abdulla Avloniy asarida axloqiy kategoriyalar haqida fikr yuritir ekan, birinchi o'rinda o'quvchilarni ko'zda tutadi, ammo ularni bolalar tarbiyasiga singdirish vazifasini muallimlar zimmasiga yuklaydi. Demak, asar o'quvchilardan ko'ra ko'proq muallimlar uchun yaratilganligiga ishonch hosil qilish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, Abdulla Avloniyning muallimlarga qarata aytgan quyidagi so'zlari "Turkiy guliston yoxud axloq" asarining maqsadini to'la ifodalaydi: "Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'b zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatiga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratlik bo'lishiga sabab bo'ladur".[4]

3.Emosional egosentrizm. O'z his- tuyg'ularini boshqalarning his tuyg'ularidan ustun qo'yish, boshqalarning emotsional holatini tushunmaslik har doim oz tuyg'ularni ustun bilish.

Talabalik o'spirinlik davrlariga tog'ri keladi. O'spirinlarda do'stlik motivlari ancha chuqurroq boladi. Do'stlikning o'ziga yuqori talablar qo'yiladi, bular: oshkoralik, o'zaro ishonch, talabchanlik, sadoqat, birgalikda doimiy yordam kolsatish, kamchiliklarni tugatish, do'stiga yordam berish, o'zaro hurmat, bir-birini tushunish va hokazo. Ikkinchidan, do'stlik hislari ancha sermazmun bo'lib, qiziqishlar faoliyatning keng doirasini qamrab oladi. Uchinchidan, do'stlik emotsional bolib, do'sti kechirayotgan hislarga javob bera olish qobiliyatiga ega boladi. O'spirinlik yoshidagi do'stlik ko'pincha butun umr bo'yi davom etadi.[6]. 405 bet

Talabalarda egosentrizm tabiiy rivojlanish jarayonining bir qismi bo'lib, u turli nazariyalar va yondashuvlar asosida tushuntirilishi mumkin. Ijtimoiy o'zaro ta'sir, bilim darajasining oshishi va tajriba orttirish orqali bu xususiyat kamayadi va talaba hayotga ob'ektivroq qarashni boshlaydi. Shu bois, pedagogik yondashuvlarda talabalarning egosentrik xulq-atvorini tushunish va unga mos munosabatda bolish nuhim sanaladi.

Talabalarda egosentrizm rivojlanishida turli xil yondashuvlar.

1. Piagetan yondashuvi (Kognitiv rivojlanish nazariyasi)

Jan Piage ta'kidlashicha, egosentrizm bolalikda kuchliroq namoyon bo'ladi va asta-sekinlik bilan kamayadi. Talabalik davrida esa u o'ziga xos tarzda qayta shakllanadi. Ular hali ham o'z nuqtayi nazarining mutlaq ekanligiga moyil bo'lsalar ham, abstrakt fikrlash orqali boshqa odamlarning qarashlarini tushunishga intila boshlaydilar.

2. Vigotskiy yondashuvi (**Sotsial-madaniy nazariya**)

Lev Vigotskiy fikriga ko'ra, egosentrizm talabaning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri orqali o'zgaradi. Uning rivojlanishi ijtimoiy o'zaro ta'sirlar, o'qituvchilar va tengdoshlar bilan muloqot qilish jarayonida pasayadi. Boshqalar bilan muloqot qilish orqali talaba o'z fikrlash tarzini moslashtiradi va egosentrik xulq-atvorini kamaytiradi.

3. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasi

Eriksonning yosh davrlari bo'yicha rivojlanish nazariyasiga ko'ra, talabalik davri shaxsiy identifikatsiya va rol chalkashligi bosqichiga to'g'ri keladi. Ushbu bosqichda egosentrizm tabiiy ravishda kuzatiladi, chunki talaba o'zini jamiyatda qanday tutish kerakligini o'rganadi va o'z shaxsini shakllantirishga intiladi.

4. Gumanistik yondashuv (**Maslou va Rojers nazariyalari**)

Maslou va Karl Rojers talabaning o'zini anglash jarayoniga urg'u beradilar. Agar talabalar o'z ehtiyojlari va hissiy holatini to'g'ri tushunmasalar, egosentrizm kuchayishi mumkin. Biroq, ular o'zini anglash va shaxsiy o'sish jarayonida bu xususiyatdan asta-sekin voz kechadilar.

5. Nevrobiologik yondashuv Miya rivojlanishining neyrobiologik aspektlariga ko'ra, talabalik yoshida prefrontal korteks (mantiqiy fikrlash va o'zini nazorat qilish uchun javobgar bo'lgan miya qismi) hali to'liq shakllanmagan bo'ladi. Bu esa ularda egosentrik qarashlarning saqlanib qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Talabalarda egosentrizm yoshga xos psixalogik jarayon bo'lib, intellektual, ijtimoiy, va emotsional, holatlarda namoyon bo'ladi. Bu bosqichda talabalar mustaqil fikrlash va o'z qarashlarini shakllantrishga intiladi, biroq ko'pincha o'z nuqtaiy nazarini mutloq deb hisoblab, boshqalarning fikirlarini yetarlicha inobatga olmaslik .

Xulasa. Egosentrizmning rivojlanishiga biologik, ijtimoiy va psixologik omillar ta'sir qiladi. Miyaning hali to'liq shakllanmaganligi, mustaqillikka intilish va identifikatsiya jarayoni bu holatni kuchaytirishi mumkin. Shu bilan birga, talabalarning ijtimoiy muhitda o'zaro muloqot qilishlari va empatiya qobiliyatini rivojlantirishlari egosentrizmning kamayishiga yordam beradi. Talabalarda egosentrizm muammosi ularning shaxsiy rivojlanish jarayonining tabiiy bir qismi bo'lib, bu bosqichda o'z fikrlarini mutlaq to'g'ri deb hisoblash, boshqalar nuqtai nazarini tushunishda qiynalish holatlari kuzatilishi mumkin. Ushbu muammo asosan hayotiy tajriba yetishmovchiligi, mustaqil fikrlash shakllanishi va ijtimoiy muhit ta'siri bilan bog'liq. Egosentrizmni kamaytirish uchun talabalarda empatiya, tanqidiy fikrlash va muhokama madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ochiq muloqot, guruh ishlari va turli qarashlarni o'rganish orqali ularga boshqalar nuqtai nazarini tushunish va qabul qilishga yordam berish mumkin. Shu tariqa, talabalarning shaxsiy va akademik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin. Egosentrizmni kamaytirish uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ijtimoiy ong va empatiyani shakllantirish muhimdir. Jamoaviy ishlarga jalb qilish, bahs-munozaralar va rolli o'yinlar orqali talabalar boshqalar nuqtayi nazarini tushunishga o'rganadilar. O'qituvchilar va ota-onalar bu jarayonda muhim rol o'ynab, talabalarni ochiq fikrlashga va o'zlarini ob'ektiv baholashga o'rgatishlari lozim. Umuman olganda, egosentrizm talabalar rivojlanishining tabiiy qismi bo'lib, to'g'ri yo'naltirilsa, u mustaqil fikrlash va shaxsiy o'sishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ontogenez Psixalogiyasi Ergash Go'ziyev 2020- yil 206- bet
2. Rivojlanish Psixalogiyasi Pedagogik Psixalogiyasi Z.T. Nishonova va boshqa - Toshkent: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti 2018.
3. . Karimova M.Kh The importance and value of spirituality as an important period in the formation of moral feelings. European scholar journal Volume 3, Issue.
4. A. Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" 2-tab'i, sana 1336 h./1917 m. Toshkent, Tip. Lit. «Par. Sots, revolyuts» 1917g.
5. Piaget, J. (1952). The Origins of Intelligence in Children. New York: Norton.
6. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
7. Erikson, E. H. (1968). Identity: Youth and Crisis. New York: W. W. Norton & Company.
7. Maslow, A. H. (1943). A Theory of Human Motivation. Psychological Review, 50(4), 370-396.